

SURROGAT ONALIK SHATNOMASINI O`ZBEKISTONDA HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Rahmonaliyev Fayzullo Xayrullo o`g`li

TDYU talabasi

rahmonaliyevfayzullo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada surrogat onalik shartnomasi mazmun-mohiyati, shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlari, agar shartnoma majburiyatlari bajarilmasa qanday shartnomaviy-huquqiy javobgarlik belgilanishi lozimligi haqidagi tanqidiy yondashuvlarga asoslangan taklif va mulohazalarni, bu turdagi shartnoma tuzish uchun surrogat onaga qo`yiladigan talablarni, surrogat onalik shartnomasida asosida tug`ilgan surrogat bolaning qonuniy onasi sifatida kim e`tirof etilishi lozimligini bir nechta xorijiy mamlakatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil etilganligini, tug`ilgan bolani fuqarolik holatini qayd etish tartibini hamda surrogat onalik asosida tug`ilgan bolaning meros olish huquqi qanday tartibda amalga oshirilishi haqidagi bir qancha qonunchilik namunalarini hamda O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga bu turdagi shartnoma turini huquqiy tartibga solinishida bir qator takliflar haqida ma`lumot beriladi.

Abstract: In this article, the content of the surrogacy contract rights and obligations of the parties to the contract, the suggestion and comments based on the critical approaches of what kind of contractual and legal responsibility should be determined if the contractual obligation is not fulfilled, the requirement for the surrogate mother to conclude the type of contract, based on surrogate mother a comparative analyses of the legislation of several foreign states on who should be recognized as the legal mother of a surrogate child, the procedure for registering a child's civil status, and a number of questions about the right of a child born on the basis of surrogate contract to receive inheritance is exercised with examples of legislation and a number of proposals for the legal regulation of this type of contract to the legislation of the Republic of Uzbekistan are given.

Kalit so`zlar: surrogat onalik shartnomasi, surrogat ona, surrogat bola, shartlashilgan ota-ona, shartnomaviy javobgarlik, meros huquqi.

Key words: surrogacy motherhood contract, surrogate mother, surrogate child, intended parents, contractual liability and rights, inheritance law.

Hozirgi global rivojlanish tendensiya davrida juda ko`lab sohalar o`zining ochiq qolayotgan savollarga yangidan yangi javoblar topmoqda va shu qatorida tibbiyot sohasida ham. Shulardan biri bu aholi orasida xususan, turmush qurgan juftliklarda uchrayotgan holat bepushtlik kasalligidir. Hozirgi vaqtda Jahon sog`liqni saqlash

tashkilotining hisobotiga ko`ra, dunyoda har 6 odamdan bittasi bepushtlik kasalligi bilan bog`liq muammolar vujudga keladi[1]. Buning natijasida, juda ko`plab oilalar orasida o`zaro ajralishishlarga olib kelmoqda. Buning yechimi sifatida esa zamonaviy tibbiyot dinamikasida surrogatlik onalik amaliyoti vujudga keldi. Bu amaliyotda farzand ko`rishni xohlovchi juftliklar surrogat onalik shartnomasini tuzish orqali o`zlarining orzu-istaklariga erishishlari mumkin. **Surrogat onalik shartnomasi** deb bir taraf surrogat ona, ikkinchi taraf genetik ota-ona va uchinchi taraf sifatida tibbiyot tashkilot o`rtasida genetik ota-ona urug`idan sog`lom farzandni surrogat onaning tanasi a`zosida yetishtirib, dunyoga keltirishga qaratilgan kelishuvga aytiladi. Ushbu shartnoma bo`yicha surogat ona majburiyati sifatida genetik ota-onaning hujayrasidan hosil bo`lgan farzandni tanasida katta qilib dunyoga keltirish majburiyatini oladi, genetik ota-ona esa belgilangan haqni to`lash majburiyatini oladi hamda uchinchi taraf, ya`ni tibbiyot tashkiloti farzandni sog`lom rivojlanishi va dunyoga keltirilishi majburiyatini oladi[2]. Bu tushuncha O`zbekiston fuqarolik qonunchiligi uchun yangi shartnomaviy munosabat bo`lganligi uchun ham bu institut O`zbekiston qonunchiligida huquqiy tartibga solinmagan.

Umuman olganda, ba`zi mutaxassislarining qarashida bu shartnomaviy munosabatni O`zbekiston qonunchiligida **haq evaziga xizmat ko`rsatish** shartnomasiga qiyoslashadi[3]. Fuqarolik kodeksining 703-moddasiga muvofiq, haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasi bo`yicha ijrochi buyurtmachining topshirig`i bilan **ashyoviy shaklda bo`lmagan xizmatni** bajarish (muayyan harakatlarni qilish yoki muayyan faoliyatni amalga oshirish), buyurtmachi esa bu xizmat uchun haq to`lash majburiyatini oladi. Lekin biz muhokama etayotgan surrogatlik onalik to`g`risidagi shartnomaning predmeti bu - farzand tug`ilishi hisoblanadi va Fuqarolik kodeksining 631-moddasida nazarda tutilgan pudrat shartnomasining xususiyatlarini o`zida aks ettiradi. Pudrat shartnomasi bo`yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig`iga binoan **ma`lum bir ishni bajarish va uning natijasini** buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to`lash majburiyatini oladi. Boshqacha qilib aytganda, pudrat shartnomasida nafaqat bajarilishi kerak bo`lgan ish-xizmat, balki ana shu **ishning natijaviy holati** ham talab etiladi. Biroq biz yuqorida keltirgan shartnoma turlari ham surrogatlik onalik shartnomasi bilan bog`liq munosabatlarni qamrab olmaydi. Chunki bunday shartnomaviy-huquqiy amaliyot natijasida meros, biologik onalikni belgilash kabi masalalarida qancha nizoli savollar vujudga keladi. Bu amaliyotni O`zbekiston qonunchiligiga huquqiy konsolidatsiya qilishda ba`zi xorijiy mamlakatlarning qonunchilik amaliyotini qo`llash mumkin bo`ladi. Biroq xorijiy mamlakatlar qonunchiligida ham o`zi bu shartnomaviy-huquqiy munosabat to`liq tartibga solinishga erishildimi yoki yo`qmi?

Ko`plab xorijiy mamlakatlar qonunchiligida bu yangi shartnoma turiga ruxsat etilganligiga qaramasdan (Ukraina, Rossiya Federatsiyasi, Hindiston, Isroil, Belarussiya, Buyuk Britaniyada surrogat onalik faqat xizmat evaziga hech qanday pul mablag` olmaslik majburiyatini yuklangan bo`lsa, Germaniyada esa bu shartnomaga umuman ruxsat etilmaganligi hamda Italiyada buning uchun katta jarima yoki ozodlikdan mahrum etilishi mumkinligini bilishimiz mumkin bo`ladi[4]. Bundan tashqari Fransiyaning Fuqarolik kodeksi ham bu surrogat onalik shartnomasi farzandlikka olish qonunchiligiga zidligi hamda inson tanasi daxlsizligi qoidalariga to`g`ri kelmaganligini uchun ham taqiqlangan[5]. O`zbekiston Respublikasida ham 2019-yili 11-martda qabul qilingan «Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to`g`risida»gi Qonuni qabul qilinganligi hamda shu Qonunning 10-moddasiga ko`ra, fuqarolarning asosiy reproduktiv huquqlari qatorida yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish belgilangan bo`lib, yordamchi reproduktiv texnologiyalar urug`lantirishning ayrim yoki barcha bosqichlari ayolning organizmidan tashqarida amalga oshiriladigan homiladorlikka erishishga qaratilgan tibbiy texnologiyalar, davolash usullari va muolajalaridan iboratdir[6]. Lekin shu qonun asosida qabul qilingan Sog`liqni saqlash vazirligining “Yordamchi eproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 3217-sonli buyug`ining 14-bandida bir nechta reproduktiv texnologiyalar turi mavjud bo`lib, bular ekstrakorporal urug`lantirish, sun`iy urug`lantirish, xetching, kriokonservatsiya, spermatozoidning intratsitoplazmatik inyeksiyasidir. Bundan ma`lumki, O`zbekiston Respublikasi qonunchiligi jihatidan surrogat onalik amaliyotiga ruxsat etilganligi haqida dalil mavjud emas.

Surrogat onalik shartnomasi juda ham qonunchilikning juda ham nozik jihatlarini o`zida aks etganligi uchun ham eng avvalo, surrogatlik amaliyotini o`tkazmoqchi bo`lgan surrogat ayolga bir qator talablar qo`yilishi kerak bo`ladi. Jumladan Rossiya Federatsiyasida “Rossiya Federatsiyasida fuqarolarning sog`ligini himoya qilish asoslari” haqidagi Qonunning 55-moddasi 10-bandiga ko`ra, surrogat onaga bir qator talablar qo`yilgan bo`lib, bular:

- Ayol 20 yoshdan 35 yoshgacha bo`lishi;
- Kamida o`zi bitta farzandni sog`lom dunyoga keltirgan bo`lishi;
- Tibbiy xulosa asosida tasdiqlangan sog`ligining qoniqarli holati;
- Surrogatlik amaliyoti o`tkazilishiga yozma rozilik xati;
- Agar ayolning qonuniy eri bo`lsa, shu reining yozma roziligi;
- Surrogat ayol surrogatlik amaliyotida o`zining tuxum hujayrasidan foydalanmasligi[7].

Amerika Qo`shma Statlarda esa bu surrogat onalikni rasman tartibga soluvchi federal qonun joriy etilmagan bo`lsada, mamlakatdagi shtatlarning o`zi amaliyotdan kelib chiqib bu munosabatni tartibga solishga urinmoqda. Jumladan shu mamlakatda

faoliyat yuritadigan agentliklardan birining surrogat ayol uchun bir qator talablari mavjud bo`lib, bular:

- AQSHning fuqarosi bo`lishi yoki doimiy yashayotgan bo`lishi;
- Haydovchilik guvohnomasiga ega bo`lishi;
- Tamaki chekmaydigan hamda noqonuniy dorilarni iste`mol qilmaydigan bo`lishi;
- So`nggi 12 oy ichida tanasida tatrovka yoki boshqacha teshishlar amaliyoti amalga oshirilmagan bo`lishi;
- 24-39 yosh atrofida bo`lishi lozimligi;
- O`zi tomonidan sog`lom bitta farzandni dunyoga keltirgan bo`lishi;
- Vazni hamda bo`y o`lchami bir-biriga mos bo`lishi zarurligi (BMI 32dan past bo`lishi);
- Hukumatdan hech qanday moddiy nafaqa yoki ta`minot olmayotgan bo`lishi;
- Har qanday jinsiy kasalliklar (STD's) dan xoli bo`lishi;
- Shifokor ko`rigiga qatnash uchun yetarlicha transportga sharoit mavjudligi;
- Qulay va barqaror atrof-muhitda yashayotgan bo`lishi lozimligini bilishimiz mumkin bo`ladi[8]. Umuman olganda, xuddi shu yuqorida

keltirilgan surrogat ona uchun talablarning mavjudligi kelajakdagi bolaning sog`lom dunyoga kelish istiqbolini yaratib beradi. Bundan tashqari surrogat onalik shartnmasi tuzilayotganda, surrogat ona tomonidan keyinchalik bolani qaytarib olishga da`vo qilmaslik hamda shartnomadagi shartlashilgan ota-onani surrogat bolaning qonuniy ota-onasi ekanligini tan olishlik majburiyatini yuklash ham Buyuk Britaniyada 2008-yil qabul qilingan “ Inson bepushtligi va embriyologiya to`g`risidagi akt” ning 54-bo`limida mavjud[9].

Rossiya “Fuqarolik holati to`g`risidagi akti” ning 16-moddasiga ko`ra, er-xotin surrogat onadan tug`ilgan bolani davlat ro`yxatidan o`tkazishda ular bolani tug`ilganlik tibbiy ma`lumotnomasi hamda surrogat onaning bolani berishga yozma rozilik hujjati zarur hisoblanadi. Mana shu moddani mohiyatiga e`tiyor bersak, bolaning qaysi tarafda qolish yoki qolmasligi surrogat onaning ixtiyorida qolmoqda[10]. Germaniya Federativ Respublikasida esa bunday shartnomaviy munosabatga ruxsat etilmaganligi sababli, garchi surrogat onalik shartnomasi taraflari hisoblangan ota-ona, surrogat onadan tug`ilgan bolani o`zlariga olishlari mumkin emasligi amaliyotdan ma`lum bo`lgan. Chunki Germaniya qonunchiligi bo`yicha bolani dunyoga keltirgan ayolgina uning qonuniy onasi bo`lishi lozimligi belgilanib o`tilgan. Bundan tashqari agar surrogatlik amaliyotiga ruhsat berilgan chet elda surrogatlik amaliyoti natijasida bola ko`rgan ota-ona, agar o`zlarining fuqaroviy mansub mamlakatga qaytishganda, bu

bolaning fuqaroviy rasmiylashtirilishi ancha qiyin kechishi va bu mamlakat qonunchiligi surrogat bolaning **qonuniy onasi** sifatida uning **surrogat onasini** belgilash mumkinligi sud amaliyotida mavjud[11]. Bunday surrogat onalikdan tug`ilgan bolani ana shu shartnoma taraflari bo`lgan ota-onaga qonuniy farzand deb berilishi mumkinligi **O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 207-moddasi 6 - qismiga** muvofiq, faqatgina ana shu surrogat onaning roziligi bilangina mumkinligi keltirib o`tilgan bo`lsada[12], lekin agar ana shu ayol rozilik bermasdan avval vafot etib qolsa, nima bo`lishi bunday rozilik berish huquqiy vorislikka ega bo`lish mumkinligi yoki mumkin emasligi, qolaversa shartlashilgan ota-ona shu holatda surrogat onaning rozilgisiz ham bolani o`zlariga olishlari mumkinligi haqidagi holatlar qonunchilikda bo`shliqligicha qolgan. Bunday holatda ba`zi bir mamlakat qonunchiliklarida agar surrogat ona bolani tug`ish vaqtida vafot etib qolsa, bola ota-ona qaramog`idan mahrum bo`lgan hisoblanadi hamda vasiylik va homiylik organiga topshirilishi, qolaversa shundan keyingina surrogat ona shartnomasidagi shartlashilgan ota-ona surrogat bolani umumiy tartibda bolani farzandlikka olish bosqichini o`tashlari mumkin bo`ladi. Lekin aynan mana shu farzandlikka asrab olishda ana shu shartlashilgan ota-ona ustunlik huquqiga ega bo`lishi chet mamlakatlar qonunchiligida ochiq qolmoqda. Shu jumladan, O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 154-moddasida bolani farzandlikka olishda ustunlik huquqiga ega bo`lgan shaxslar keltirilganligi va bu shaxslar qatori bolaning o`gay ota va o`gay onasi mavjudligi keltirilgan bo`lsada, xuddi mana shu shaxslar toifasi qatoriga **surrogat onalik shartomasida shartlashilgan ota-ona** degan shaxslar toifasini ham keltirib o`tilishi lozim hisoblanadi.

Agarda bolani dunyoga keltirgan surrogat ona uni talab etayotgan ota-onaga berishdan bosh tortsa, bu holda tadqiqotchi O.K.Ayvarning fikricha, surrogat ona o`zining shartnomaviy majburiyatini buzgan hisoblanadi hamda shartnomaviy moddiy javobgarlikka tortilishi, jumladan IVF (ekstrakorporal urug`lantirishsiz) bilan bog`liq barcha xarajatlarni qoplash majburiyatini oladi[13]. Bundan tashqari ana shu tadqiqotchining fikriga ko`ra, shartlashilgan ota-ona kuchli hissiy hayajon va bosimni boshdan kechirishi mumkinligi nuqtai nazaridan, surrogat ona shartlashilgan ota-onalar foydasiga kelib chiqqan ma`naviy zararni ham to`lashi zarurligini ta`kidlaydi. Lekin agarda bola o`lik holda tug`ilsa, javobgarlik qaysi tarafning majburiyatida bo`lishi, bu holda surrogat onaga shartnoma bo`yicha kelishilgan pulni qisman berilishi yoki umuman berilmasligi masalasi Rossiya qonunchiligida ochiq qolgan. Umuman olganda, O`zbekiston qonunchiligi bo`yicha **Fuqarolik kodeksining 631-moddasi** bo`yicha agar qonunchilikda boshqacha nazarda tutilgan bo`lmasa, pudratchining pudrat shartnomasini tuzish chog`ida **tavakkal qilishi** belgilangan bo`lsada, bu surrogat onalik bilan bog`liq holatga to`liq tatbiq etilishi qiyin kechadi. Chunki bu holatda surrogatlik amaliyoti amalga oshmay qolganda, agar bu surrogat onaning aybi

bilan bo'lsa (vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tmaganda yoki homiladorlik davrida ma'lum bir o'ziga qo'yilgan cheklovlarni buzgan holatda), bolaning tushib qolishi yoki o'lik holda tug'ilishi bilan bog'liq javobgarlik surrogat onaning zimmasiga yuklanishi mumkin[14].

Surrogat bola tug'ilganidan keyin uning **meros olish huquqi** yoki boshqa ota-ona va bola o'rtasidagi oilaviy-huquqiy majburiyatlar qanday kechadi degan muammoli savol o'z-o'zidan vujudga keladi. Buyuk Britaniyada qabul qilingan "Inson bepushtligi va embriyologiya to'g'risidagi akt" ga muvofiq, tug'ilgan bola toki bolani shartlashilgan ota-ona o'zining nomiga rasmiylashtirmaguncha (parental order yoki adoption order), bolaning qonuniy onasi surrogat ona bo'lishi ma'lumligidan kelib chiqilsa, shu mamlakatdagi mashhur advokatlardan biri Aleks Steynerning fikriga ko'ra, surrogat bola toki u shartlashilgan ota-onaga berilmaguncha surrogat onaning qonuniy merosxo'ri hisoblanadi[15]. Xususan O'zbekiston qonunchiligi nuqtai nazaridan qaralsa, Oila kodeksining 207-moddasi 6-qismiga ko'ra, surrogat onaning roziligi bilan shartlashilgan ota-ona, surrogat bolaning qonuniy otasi va onasi deb qayd etilishi mumkinligi inobatga olsak, surrogat bola to'liq meros olish huquqi yoki aliment olish huquqi ana shu shartlashilgan ota-ona zimmasiga o'tadi. Qolaversa, **Oila kodeksining 165-moddasi 2-qismiga** ko'ra, farzandlikka olingan bola va uning ota-onasi o'rtasidagi barcha huquq va majburiyatlar yo'qolishi, endilikda farzandlikka olingan bola to'liqligicha farzandlikka olgan shaxslar bilan oilaviy-huquqiy munosabat ishtirokchisi bo'lishi mumkinligi ma'lum[16].

Bu surrogat onalik shartnomasi bir qator muammolarni vujudga keltirishi mumkinligini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bu yangi shartnomaviy-huquqiy munosabatni tartibga solishi zaruriyati talab etilmoqda. **Birinchidan**, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga bir bob sifatida tegishli surrogat onalik shartnomasi sifatida yangi shartnoma turi kiritilishi va bu bobda shartnomaning muhim shartlari, taraflarning huquq va majburiyatlari, shartnomaviy javobgarlik masalalarini aks ettiruvchi normalar kiritilishi hamda Adliya vazirligi tomonidan surrogat onalik shartnomasining namunaviy shaklini aks ettirgan normativ-hujjat chiqarilishi lozim bo'ladi. **Ikkinchidan**, Oila kodeksining tegishli moddalariga surrogat ona bo'lish uchun qo'yiladigan talablar hamda shartlar joriy etilishi kerakligi, agar surrogat ona tug'ruq vaqtida vafot etsa, bolani shartlashilgan ota-onaning nomiga rasmiylashtirish tartibini aks ettirgan qonun normasining Oila kodeksi 207-moddasiga kiritilishi kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar (References) ro`yxati:

1. <https://www.who.int/news/item/04-04-2023-1-in-6-people-globally-affected-by-infertility#:~:text=Around%2017.5%25%20of%20the%20adult,care%20for%20those%20in%20need>. Accessed on 4 Decemeber, 2023.
2. Surrogat onalik munosabatlarini tartibga solishni takomillashtirish masalalari tog`risidagi maqola. Jamshid Abdullayev. Published "Eurasian journal of academic research" ISSN 2181-2020, Volume 2 Issue B, August 2022. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5584563>
3. Yuqoridagi manba <https://doi.org/10.5281/zenodo.5584563>
4. Rosie Scammell, Treat Surrogate Parents as Sex Offenders, Says Italian Minister, GUARDIAN (Jan. 6, 2016), <https://www.theguardian.com/world/2016/jan/06/treat-surrogates-sex-ffenders-italianminister-angelino-alfano> [perma.cc/9BEU-4XFA].Code Civil [C. civ][Civil Code] art. 16-7 (Fr.)
5. <https://lex.uz/ru/docs/4233891>
6. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_121895/3b0e0cbbd6f1b1a07c0b0b3d4df406a2ecf108a1/ Accessed on 2023, 26 November.
7. <https://pathwaystoparenthood.com/gestational-surrogate-program/criteria/> Accessed on 2023, 26 November.
8. <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2008/22/section/54> Accessed on 2023, 26 November.
9. Гайбатова К. Д., Шамсудинова П. М. Проблема установления происхождения детей как правовое последствие договора о суррогатном материнстве // Юридический вестник ДГУ. 2022. Т. 41, № 1. С. 66–70. DOI: 10.21779/2224-0241-2022-41-1-66-70,
10. <https://www.loc.gov/item/global-legal-monitor/2019-04-29/germany-federal-court-of-justice-rules-on-legal-motherhood-of-surrogate/> Accessed on 2023 28 October.
11. <https://lex.uz/acts/-104720> Accessed on 2023, 26 November
12. Айвар Л.К. Правовая защита суррогатного материнства // Адвокат. 2006. № 3. С. 13-19.
13. Флягин А.А. Правовой статус родителей при суррогатном материнстве // Доступ из СПС «КонсультантПлюс»
14. <https://allanjanes.com/-Succession-Inheritance-and-Surrogacy-The-Issues> Accessed on 2023, 26 November.
15. <https://lex.uz/acts/-104720> Accessed on 2023, 26 November.